

PEOPLE'S PEDAGOGY - METHODS OF NATIONAL EDUCATION THROUGH TRADITIONS

Turkmenbaeva Khurshida Gaypnazarovna

Nukus State Pedagogical Institute, Master's Department,
Master of Pedagogical Theory and History

Summary: This article examines the origin and uniqueness of some traditions of the Karakalpak people, which have been formed over several centuries, which are also found in other peoples.

Key words: Customs, traditions, people, national rituals, future, factor

XALQ PEDAGOGIKASI - SALT-DASTUR ORQALI MILLIY TARBIYA BERISH USULLARI

Turkmenbaeva Xurshida Gaypnazarovna

Nukus Davlat Pedagogika Instituti, Magistratura bo'limi,
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistranti

Rezyume: Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining bir necha asrlar davomida shakllangan, boshqa xalqlarda uchrashadigan, lekin o'ziga xos bo'lgan ayrim urf-odatlar, ularning kelib chiqishi haqida so'z yuritiladi.

Резюме: В данной статье рассматривается происхождения и уникальность некоторых обычаев каракалпакского народа, складывающейся на протяжении нескольких веков, которые встречается и в других народов.

Tayanch so'zlar: urf-odatlar, dasturlar, xalq, milliy marosimlar, kelajak, omil

Ключевые слова: обычай, традиций, народ, национальные обряды, будущее, фактор

Ma'rifat orqali jamiyatni o'zgartirishga jazm qilgan xalqimizning buyuk merosi, qadriyatlarini bir necha asrlar davomida shakllangan bo'lsa ham, ilm-fan va yangi texnologiyalar taraqqiy etgan, kishilar dunyoqarashi, tushuncha va tasavvurlari kengaygan, ta'lim-tarbiya tizimi yangi bosqichga kotarilgan bugungi davrda ham zarracha qimmatini yo'qotmagan. Chunki jamiyat texnologik jihatdan qanchalik taraqqiy etmasin, har bir tarixiy davr inson ma'naviy ma'rifiy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasida yangidan-yangi, murakkab masalalarni ko'ndalang qoyaveradi. Glaballashuv jarayoni ta'sirida mazkur masala yanada jiddiy tus olmoqda.

Oila jamiyatimizning boshlang'ich bug'ini, qoraqalpoq xalqining urf-odatlarini va qadriyatlarini o'zida saqlovchi muqaddas maskan. Ezguliklar oiladan boshlanib, undan mahallaga ko'chadi, jamiyatga kirib boradi. Yashayotgan tuprog'imizdagi har qanday muammolar bizni befarq qoldirmaydi. Jamiyatimizda oilalarning mustaxkam bo'lishi uchun o'z hayotiy fikr-maslahatimizni aytish yoshi kattalar vazifasi. Mahallalar qadim-qadimdan yaxshilik beshigi,

yaxshilik zotini taratuvchi tarbiya maskani. Yashash o'rni, milliy urf-odat, salt-dasturlar shakllanadigan, inson tug'ilib kamolga kelgancha uni ta'rbiyalovchi, qalbida Ona-vatan, yuksak muhit, xalqning milliy qadriyatlarini uygotadigan maskan bo'lib kelgan.

Odamlarning bir-biriga mehr-muruvvatli, sabrli bo'lishida va o'ziga xos jamoatni shakllantirishda mahallalar juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Sababi, ushbu yerda xalqimizning ongini, qalbiga teran singgan ming yillik ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy salt-dasturlarimiz xozirgi kungacha saqlanib, avlodtan-avlodga bebaho xazina bo'lib yetib kelmoqda.

Respublikamizda turli millat vakillari mustahkam yakdillik va do'stlikta yashab kelmoqda. Ularning o'z ona tilida bilim olishi, milliy urf -odatlari bilan salt-dasturlarini rivojlantirishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos boy og'zaki ijodi va adabiyoti bor. Xalq og'zaki ijodi XX-asrgacha rivojlanib, yozma adabiyot deyarli rivojlanmadi. Buning sababi shuki, qoraqalpoqlar uzoq asrlar davomida yarim ko'chmanchilik hayotini boshdan kechirdilar. Mehnatkash xalqning orzu-istaklari folklor asarlarida o'z ifodasini topar edi. Xalq og'zaki ijodining bizgacha yetib kelgan namunalari orasida ajoyib lirik mazmundagi she'riy asarlarni ham, salmoqdor qahramonlik dostonlarini ham uchratish mumkin. Qoraqalpoq dostonlarining deyarli hammasida vatanparvarlik g'oyalari va demokratik motivlar yorqin ifodalangan. Qoraqalpoq va o'zbek xalqlarining tarixi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lganiday, bu ikki qon-qarindosh xalqning adabiyoti o'rtasida o'zaro aloqa va ta'siri ham bir necha asrlik tarixga ega. O'zbek xalq doston va ertaklari (masalan, "Alpomish") ko'pdan beri qoraqalpoq halqi orasida mashhur bo'lganidek, qoraqalpoqlarning "Qirq qiz" dostoni ham o'zbek kitobxonlari diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Ayniqsa ikkinchi jahon urushidan so'nggi yillarda o'zbek-qoraqalpoq adabiyoti aloqalari mustahkamlandi. O'zbek va qoraqalpoq adiblarning ijodiy hamkorligi amaliy tus oldi. Bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish ishi keng quloch yoydi.

Til — millatning ma'naviy boyligi ekan, u millatning madaniyatini, turmush tarzi, tarixi ham hisoblanadi. Tillarga e'tibor va unga hurmat bajo etish — dunyo tinchligining ham yagona kafolati.

Bizning ona tilimizga bo'lgan e'tiborimiz, hurmatimiz hali ham yuqori bo'lishi zarur. Madaniy meros — ota-bobolarimizning umitilmas salt-dastur, urf-odatlari, oila qurishdagi tajribalari, ularning bebaho pand-nasihatlar yoshlarning bilimini, ongini boyitadi.

1977-yildan 1990-yillarga qadar qoraqalpoq folklorini 20 tomligi nashrdan chiqdi. Bu tomlarda 31 doston, qoraqalpoq xalq ertaklari, maqol-matallari, jumboqlari, aytishuvlari, xalq ashulalari va salt-dastur jirlari berilgan.

Hech qachon bir yoki bir necha kishi yoki oilalar urf-odatlar, marosimlarni yarata olmaydi. Ta'kidlash joizki, an'analar ibtidoiy madaniyat davridan buyon davom etib kelayotgan ijtimoiy xodisa bo'lib, jamiyat taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda mahallalar olib borayotgan tadbirlar orasida qizlarimiz – bo'lg'usi onalar tarbiyasida ustivor ahamiyat kasb etib bormoqda. E'tibor berganmisiz, axil, namunali mahallalarda hulqi yomon, tarbiyasi og'ir qizlar umuman uchramaydi. Chunki uni nafaqat ota-onasi, balki butun mahalla bo'lib tarbiyalaydi. Kelin qilmoqchi bo'lgan qizning uyiga kelishdan oldin, eng avvalo qushnilardan qiz haqida surishtiradi. Bu esa tarbiyaning to'g'ridan to'g'ri inson taqdiriga bog'liqligini ko'rsatadi. Agar farzandi biror yutuqqa erishsa ota-ona «boshimni baland ko'tarib yuraman», agarda farzand qandaydir huquqbuzarlik ish qilsa «mahallada yurolmay qoldim» deb afsus bilan aytgan gaplarini eshitamiz. Mahalla oqsoqolining ota-onaga «farzandingizning bu ishi chakki bo'libdi»,-

degan tanbexi hatto sudning eng yuqori jazosidan ham og'irroq botishi mumkin. Bu ham «mahalla-tarbiya maktabi» ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Ta'lim tarbiya muassasalari bilan aholi va mahalla idorasining o'zaro mustahkam aloqalari, o'zaro bog'liqlikdan to'g'ri va samarali foydalanish hamda o'zaro hamkorlikni yulga quyish, albatta mahallada sog'lom muxitni yaratishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki milliy mentalitetimizda buva, buvi, ota-ona, o'g'il-qiz farzandlar axil, tinch yashayotgan oila mukammal oila xisoblanadi. Afsuski, kundalik turmushimizda nafaqat notuliy va notinch, yolg'iz onali, balki to'liq oilalarda ham yoshlarning qarovsizligi va xuquqbuzarligi ko'p uchraydi. Mahalla joylashgan xudud shart-sharoitlarini mazkur muammo nuqtai nazaridan aniq xisobga olish ham muximdir.

Xulosa qilib aytganda, biz uchun halq pedagogikasi - muqaddas. Bu halqimizning azaliy bebaxo ma'naviy tuyg'usi. Bu tuyg'u asrlar mobaynida halqimizning jon-joniga, qon-qoniga singib ketgan. Uni asrab avaylash xar birimizning burchimiz bulib, nafaqat bugungi kunning, balki kelajak masalasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Barkamol avlod tarbiyasi» Toshkent 2005 yil. «Akademiya». 18b.
2. I.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch». T. «Ma'naviyat» 2008 yil. 111-b.
3. I.A.Karimov. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin».T. «O'zbekiston» 1996y. T 2.4. «Ёшларни миллий истиқлол ғояси руҳида тарбиялаш – ватан тинчлиги ва хавфсизлигини мустахкамлашнинг муҳим омили». Илмий-амалий конференция Т.2004. 25-б
4. «Маърифатли жамият муҳолифлари». «Академия» нашриёти Т.2005.23-б
5. A.Uzoqov. “Mustaqil davlatlar hamdo'stligi xalqlari adabiyoti” Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, 2007 o'quv qo'llanma.
6. Z. Orazimbetova «Ona tilim -tarixim bugunim va kelajagim» xolikarakalpak. uz 19. 10. 2020